

2p
Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim, jonim senga
fido, O'zbekistonim!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:24 (67085)
2016-yil
13-iyun

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

«ONAJONIM TABIAT»

INSHOLAR VA RASMLAR KO'RIK-TANLOVI
G'OLIBLARI TAQDIRLANDI



- Tanlov bahonasida poytaxtimizga kelib, bu yerdagi katta bunyodkorlik ishlarining guvohi bo'ldim. Mustaqilligimizning shonli 25 yillik bayrami arafasida Toshkent misli ko'rilmagan darajada chiroy ochibdi, - deydi Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 31-umumta'lim maktabi o'quvchisi Ardasher Mehmonov.

(3-bet)

Har bir bolaning o'ziga yarasha iqtidori bo'ladi. Faqat uni o'z vaqtida shakllantirish, bolaga iste'dodini yuzaga chiqarishda ko'maklashish lozim.



«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi Jizzax viloyat bo'limi, «Kamolot» YOIH, Xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda viloyat «Barkamol avlod» markazida «Yer kurrasida tinchlik» Respublika rasmlar ko'rgazma-tanlovining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.

TINCHLIK BOLALAR NIGOHIDA

«Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni» munosabati bilan «Yer kurrasida tinchlik» Respublika rasmlar ko'rgazma-tanlovining Buxoro viloyat bosqichi ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Tadbir viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garak a'zolarining konsert dasturi bilan boshlandi. Unda o'quvchilarning Vatan, tinchlik, baxtli bolalikni madh etuvchi kuy va qo'shiqlari mehmonlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Bayram dasturidan so'ng tanlovni «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori Mavjuda opa Jamolova kirish so'zi bilan boshladi.

Bellashuvlar 3 yo'nalishda o'tkazildi. Unda har bir yo'nalish bo'yicha shahar va tuman bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 1 nafardan o'quvchi-yoshlar o'z ijodiy ishlari bilan ishtirok etdilar.

– Men bu tanlovda qatnashib, ham tajriba, ham do'stlar orttirdim. Tengdoshlarimning chizgilarini ko'rib, ularning mahoratiga qoyil qoldim. O'zimni g'oliblar qatorida ko'rganimdan juda mamnunman, – deydi 1-o'rin sohibi, Buxoro tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Sevinch Temurova.

G'oliblar «Barkamol avlod» bolalar markazining faxriy yorliqlari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Bugun iste'dodli yoshlarga barcha sharoitlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalanib, siz ham tengdoshlaringiz singari o'rganishga, izlanishga chog'laning. Yutuq va muvaffaqiyatlaringiz haqida esa, albatta, bizga yozib yuboring.



N. SULTONOV olgan suratlar

Iqtidorli bolalarni aniqlash maqsadida tashkillashtirilgan mazkur tanlovning shahar va tuman bosqichlarida 1000 nafardan ortiq o'quvchilar qatnashdi.

Viloyat bosqichida 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 60 nafardan ortiq ishtirokchilar o'zaro bellashdilar.

– Men bolalar inoqligi haqida rasm chizdim, – deydi Do'stlik tumani ishtirokchisi 6 yoshli E'zoza Bahromova. – Inoqlik bu do'stlik, tinchlik, totuvlik degani.

Chizgan rasmimda Vatanimizda turli millat vakillari ahl yashayotganini aks ettirdim.

G'oliblar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Charos YOQUBOVA,
Jizzax viloyati

Bolajonlar, mana, yozgi ta'til boshlanib, maroqli hordiq chiqarishingizga zo'r imkoniyat tug'ildi. Siz dam olishni rejalashtirayotgan bir paytda Buxorodagi tengdoshlaringiz o'z iste'dodlarini namoyish etib, hatto tanlovlarda g'olib bo'lishga ham ulgurishdi.

bilib oldik:

– Mazkur tanlovda 14 ta tuman jam'i 140 nafardan ortiq o'g'il-qizlar ishtirok etib, 4 shart bo'yicha o'zaro bellashishdi.

Dastlab jamoalar tomonidan

«Targ'ibot plakatini tayyorlash» sharti juda manzur bo'ldi. Shart bo'yicha o'quvchi-



BAYRAM BAYRAMGA ULANDI



Viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida o'tkazilgan «Gullar va qushlar bayrami» ko'rik-tanlovining qay tarzda o'tgani haqida markazning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilobar opa Muhiddinovadan quyidagilarni

rokchilarning gullar va parrandalarni qanday parvarishlash to'g'risidagi bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

«Tezkor viktorina» shartida esa parrandalar va gullarga oid tezkor savol-javoblar o'tkazildi.

Bolalarga, ayniqsa,

lar o'simliklar va jonivorlar dunyosini asrash mavzusida plakat tayyorlashdi.

To'rtinchi shart sahna ko'rinishi bo'lib, unda o'quvchilar mavzuga oid o'z badiiy chiqishlari bilan yig'ilganlarda katta taassurot qoldirishdi.

Hamma kutgan baholash jaryoni boshlanganida, nafaqat o'quvchilar, balki tadbirdagi barcha yig'ilganlarni ham qattiq hayajon bosdi.

Xonaki qushlarning turlari ko'pligi, noyobligi, qafaslarining ozodaligi, qushlar haqidagi ma'lumotlarning to'liqligi inobatga olingan holda 1-o'rin

Jondor tumanining «Nafosat», 2-o'rin Shofirkon tumanining «Yosh ekolog», 3-o'rin esa Romitan tumanining «Tabiat donolari» jamoalariga nasib etdi.

Gullarni parvarishlash bo'yicha 1-o'ringa Qorovulbozor tumanining «Yosh tabiatshunoslar», 2-o'ringa Buxoro shahrining 30-umumta'lim maktabi o'quvchilari, 3-o'ringa esa Vobkent tumanining «Tabiat qalqonlari» jamoalari sazovor bo'lishdi.

Tadbir yakunida o'quvchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Ozoda TURSUNBOYEVA,
Nozima UBAYDULLAYEVA

Yaqinda poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Butunjahon atrof-muhit kuni»ga bag'ishlangan tadbirda

«ONAJONIM TABIAT»

INSHOLAR VA RASMLAR KO'RIK-TANLOVI G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

Bugungi kunda o'quvchilarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, ularda tabiatga mehr-muhabbat hissini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston ekologik harakati bilan hamkorlikda «Tong yulduzi» gazetasi orqali «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar ko'rik-tanlovi e'lon qilingan edi. Bog'da o'tgan tadbirda g'oliblar homiy tashkilotlar tomonidan munosib taqdirlandi.

ISHTIROKCHILAR SO'Z-SO'RAYDI

– Tanlovda rasmlar yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni olganim meni beshoy ruhlantirdi, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Xumora Omonova. – Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan g'oliblar bilan tanishib, dugonalarim ko'payganidan xursandman. Tengdoshlarimga qaratib, Siz ham ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib va g'olib bo'ling, deyman.

– Men tanlovning insholar yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa sazovor bo'ldim, – deydi Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 3-IDUMning 6-sinf o'quvchisi Shahnoza Komilova. – Ilm dargohimizda tashkil etilgan «Orzu qanoti», «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zosiman. «Tavuz», «Bog'im», «Rayhon», «Nihollar suhbat» kabi she'r-larimni yaratilishida ustozim Ra'noxon Usmonovanning ko'magi katta bo'ldi. Bugungi tadbir hayotimdagi eng unutilmas kunlardan biriga aylanishiga aminman. Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Dilshoda Mamadiyeva rasmlar yo'nalishi bo'yicha 2-o'rin sohibasi bo'ldi.

– «Onajonim tabiat» tanlovida men «Ozod yurtning tabiati obod» nomli inshoim bilan rag'batlantiruvchi mukofot sohibi bo'ldim, – deydi Ardasher Mehmonov. – Men bu yil Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 9-«A» sinfini bitirdim. Tanlov bahonasida poytaxtimizga kelib, bu yerdagi katta bunyodkorlik ishlarining guvohi bo'ldim. Mustaqilligimizning shonli 25 yillik bayrami arafasida Toshkent misli ko'rilmagan darajada chiroy ochibdi... «Eng yosh musavvir» nominatsiyasi g'olibasi bo'lgan Sarvinoz Nurmatovanning ham quvonchi cheksiz. U bu yerga ustozlari bilan kelibdi.

– O'quvchim Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 3-«B» sinfini a'lo baholar bilan yakunladi, – deydi ustoz Gulsara Ahrorova. – Tabiatan kamgap, biroq tortinchoq Sarvinoz rasm chizishga bo'lgan iqtidori bilan o'quvchilar orasida ajralib turadi. O'qish va tabiatshunoslik darslarida chizgan daraxt va gul-lari ramziy ma'noda gapirayotgandek bo'ladi. Mana, u g'olib bo'lib, ishonchimizni oqladi.

– Yurtimizning go'zalligi jannatga qiyoslanadi. Uni asrab-avaylash shu yurtda yashovchi har bir insonning burchi, deb bilaman, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi Madina Qurbonova. – Yozgan inshom orqali bu haqda o'z fikrlarimni bildirdim. Ijodiy ishimi rag'batlantiruvchi mukofot bilan taqdirlanganligini eshitib, juda xursand bo'ldim. Gazeta orqali yana yangidan-yangi tanlovlar e'lon qilinishini kutib qolaman.

O'z muxbirlarimiz

Gulasal Baxtiyeva
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 3-«D» sinfini muvaffaqiyatli tugatdi. «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar ko'rik-tanlovida «Ona tabiat» inshosi uchun 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

GULASALNING QUVONCHI



– Har doimgidek o'tkaziladigan tarbiyaviy soatda sinf rahbarimiz Azatjon Azimova sevimli gazetamiz – «Tong yulduzi»ning navbatdagi soni bilan tanishtirarkan, «Onajonim tabiat» deb nomlangan yangi ko'rik-tanlov e'lon qilinganligini ma'lum qilib, barcha o'quvchilarni faol qatnashishga chorladi. Bir hafta ichida ona tabiat, uning tengi yo'q go'zalligi, boyliklari, atrof-muhitni asrab-avaylashga doir fikrlarimni qog'ozga tushirdim. Inshoimni buvijonimga, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilfuza ammamga o'qib berdim. Yozganlarim barchaga birdek ma'qul bo'ldi va xatjildga solib, tahririyatga yubordim. Tanlov g'olibi bo'lganimda, eng avvalo, maktab ma'muriyati, dadam, oyim, ammalarim xursand bo'lib, meni tabriklashdi, – deydi qizaloq ko'zlari porlab.



Mustaqilligimizning 25 yiliga

ANDIJONLIK BOLAJONLARGA MUNOSIB SOVG'A

Bolaligimni Kuni kecha Andijon viloyat qo'g'irchoq teatri-ning yangi binosi foydalanishga topshirilgani haqidagi xabarni eshitib, bolalik xotiralaringizni qayta jonlandi. Aytish mumkinki, ushbu bino andijonlik bolajonlar uchun eng ulug', eng aziz bayram – Mustaqilligimizning 25 yillik to'yiga munosib sovg'a bo'ldi.

tez-tez qo'g'irchoq spektaklini tomoshalariga olib borгани yodimga tushadi. To'g'risi, o'shanda mendan baxtli odam bo'lmasdi. Spektaklni tomosha qila turib, go'yo o'zimni ertaklar olamiga tushib qolgandek his etardim. Balki shu sababdir, kelajak taqdirim ham ijod olami bilan bog'landi...

Quvonarlisi, loyiha tashkilotchilari tashrif buyuruvchi jaiji bolajonlar va ularning ota-onalari uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, binoning old tomonida bayram tantanalari o'tkazishga mo'ljallangan keng maydon barpo etildi. Qahvaxona, bolalar uchun attraksionlar o'rnatildi. Shuningdek, 300 o'rinli tomosha va mashg'ulotlar o'tkazish zalari, san'atkorlar uchun xizmat xonalari, qo'g'irchoqlar tayyorlashga mo'ljallangan maxsus ustaxona, tikuv sexi, kiyinish, yuvinish xonalari, ikkinchi qavatda ma'muriy xonalar joylashgan.



Teatrning ochilish marosimi O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlarining X an'anaviy respublika ko'rik-festivaliga ulanib ketdi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, «O'zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi, Andijon viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda barcha viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan professional qo'g'irchoq teatrlari ijodiy jamoalarining turli mavzulardagi bir-biridan qiziq spektakllari namoyish etildi.

– Qo'g'irchoq teatrining yangi binosi juda chiroyli ekan, – deydi Qo'rg'on tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Dilshoda Umidjon qizi. – Men ham onajonim bilan bu yerga tomosha ko'rishga keldik. Nasib bo'lsa, olgan taassurotlarimni dugonalarimga, albatta, so'zlab beraman.

Biz ushbu dargoh andijonlik bolajonlarning sevimli maskanlaridan biriga aylanishiga ishonamiz.

S. TURSINOV

QO'G'IRCHOO TEATRI TA'TILDA BOLALAR BILAN!

Yaqinda Botir Husanov, Bobur Ayubov, Dilshod Yo'ldoshev, Gavhar Hamroyeva kabi teatr jamoasi a'zolari tomonidan A.Orlovning «Oltin jo'ja» nomli asari asosida sahnalashtirilgan spektakl yosh tomoshabinlarga namoyish etildi. Shu-

Yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda teatrlarning tutgan o'rni beqiyos. Bu yil Jizzax viloyati, Arnasoy tumanidagi Bobofayziyev nomli «Havaskor qo'g'irchoq teatri» to'garagi tashkil etilganiga 10 yil bo'ldi.



ningdek, ta'tilning ilk kunlarida dramaturg H. Ubaydulloyevning «Temirboyning sarguzashtlari» nomli asari yosh to'garak a'zolari ijrosida tumandagi 21-umumta'lim maktabi o'quvchilari va 7-MTM tarbiyalanuvchilariga havola etildi.

Hozirda «Kamalak» nomini olgan mazkur teatr-studiyasi «Quvnoq oila», «Bo'g'irsoq» kabi spektakllari bilan joylarda bolajonlarning yozgi ta'tilini maroqli o'tkazishga katta hissa qo'shmoqda.

F. ABDUSAMAD qizi

DUGONAMGA HAVAS QILAMAN

Men maktabdagi dugonam Shirin Abdullayeva haqida maqola yozib, aziz tengdoshlarimga uni o'rnak sifatida ko'rsatgim keldi.

Chunki u juda mehribon va xushchaqchaq qiz. Bilimdonligi, boshqalardan yordamini aymasligini aytmaysizmi?! U bilan suhbatlashgan sari suhbatlashgim kavelaradi. 6-sinf o'quvchisi bo'lsa-da, uning faxriy yorliq va maqtov yorliqlari 15 tadan oshib ketgan. Bu dugonamning a'lo baholari va namunali xulqi uchun berilgan.

Yana u sport to'garaklariga ham muntazam qatnaydi.

Tengdoshimning ko'plab yutuqlarga erishishi avvalo, uning tirishqoqligi, ko'p kitob o'qishidan, deb o'ylayman. Chunki u qimmatli vaqtini behuda sarflamaydi. Bilganlarini esa dugonalaridan, do'st-laridan sira ayamaydi.

Men Shiringa bundan-da ko'p yutuqlarga erishishiga tilakdoshman.



Visola UMAROVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabi o'quvchisi



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

SPORT VA DO'STLIK

(Hikoya)

Bir qishloqda Sardor va Komil degan bolalar yashar ekan. Komiljon esli, xushmuomala va odobli, Sardor esa uning aksi ekan.

Bir kuni 4-sinflar o'rtasida musobaqa o'tkazilbdi. Dastlab 10 nafar o'quvchi o'zaro yugurish musobaqasida bellashibdi. Ular orasida Sardor bilan Komil ham bor ekan. Murabbiy hushtagidan so'ng hamma marra tomon tezlikda yugurib ketibdi. Oz fursat o'tmay, Sardor charchab, yugurolmay qolibdi. Shunda yordam berish uchun Komil uning yoniga kelibdi. Sardorning: «Sen yugurmaysanmi? Musobaqada yutqazib qo'lasan-ku!?» degan savoliga Komil bunday javob qaytaribdi:

– Ey do'stim, parvo qilma, bugun bo'lmasa, ertaga, albatta, g'alaba qozonamiz. Muhimi, sening sog'liging.

O'rtog'ining bu samimiy so'zlari Sardorga odob va xushmuomalalikni o'rgatibdi.

Oyatullo HIDOYATULLAYEV, Farg'ona viloyati, Farg'ona tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi



MAKTABDA TADBIR

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi, «Ko'kcha» mahalla fuqarolari yig'ini va boshqa tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan mazkur tadbirda mahalla faollari, ota-onalar, 71-, 111-maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o'quvchi-yoshlar ishtirok etishdi.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabida qiziqarli tadbir bo'lib o'tdi.

– Tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad bolajonlarimizning ta'til kunlarini yanada maroqli o'tkazish hamda ularni turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklarini oldini olishdan iboratdir, – deydi maktab direktori Dilfuza Nizomova.

O'quvchilar tomonidan taqdim etilgan she'r, raqs va qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari yig'ilganlarga xushkayfiyat ulashdi. Shuningdek, bir guruh a'lochi, iqtidorli va izlanuvchan o'quvchilar homiylar tomonidan taqdirlandi.

Sohibjon HOTAMOV

So'nggi yillarda yurtimizda ko'plab zamonaviy kitob do'konlarining bunyod etilishi kitobxonlarni behad xushnud etmoqda.

«KITOB OLAMI»DA AKSIYA

Shunday maskanlardan biri poytaxtimiz markazida joylashgan «KITOB OLAMI» savdo majmuasidir. Mazkur markazda mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning yirik nashriyotlari tomonidan chop etilgan 5 000 dan ziyod nomdagi turli kitoblar kitobxonlar uchun taqdim etilgan.



Majmuaga tashrif buyurur ekansiz, malakali xodimlar tomonidan xaridorlarga sifatli xizmat ko'rsatilyotganiga guvoh bo'lasiz. Kitoblar bilan tanishish jarayonida vaqtni maroqli va qulay o'tkazish uchun qahvaxona, bolajonlar uchun o'yinchoqlar bo'limi xizmat ko'rsatayotganini ko'rasiz. Yoshi katta kitobsevar xaridorlar uchun bir piyola choy ustida yumshoq o'rindiqlarda tanlagan kitoblari bilan tanishib chiqish imkoniyati yaratilgani e'tiboringizni tortadi.

Kuni kecha ushbu maskanda «KITOB va SPORT» nomli kitob aksiyasi bo'lib o'tdi. Qiziqarli tarzda tashkil etilgan ushbu tadbirda qatnashgan kitobsevar bolajonlar ko'plab sovrinlar utib olish imkoniga ega bo'lishdi.

Jamoliddin ABDULLAYEV

YOZGI TA'TIL - ANGLIYADA!

Mamlakatimizda davlatimiz tomonidan qabul qilingan «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Britaniya Konsulligi hamkorligida o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi ingliz tili o'qituvchisi» ko'rik-tanlovi g'oliblari Buyuk Britaniyada tajriba almashib qaytishdi. Joriy yilning yanvar oyida Navoiy shahridagi

raqqiyoti («Development of the Education System in Uzbekistan») mavzusidagi prezentatsiyalarida mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyati va uning amaliy samaralarini targ'ib qildi.



11-IDUM o'qituvchisi Vazira Azimova ham Angliyaga safar qildi. Ustoz u yerda tajriba almashish bilan birga, «Open doors International Language School» xalqaro maktabida, «High View Primary School» boshlang'ich maktablarida O'zbekistonda ta'lim tizimi ta-

qizilgan. Izlanuvchan muallima yozgi ta'tilni yanada qiziqarli va unumli o'tkazish maqsadida Buyuk Britaniyaning Cheltenham shahridagi Dean Close til maktabida o'qish uchun taklif-noma oldi. Vazira Azimova rahbarligida 6 nafar o'quvchi joriy yilning iyul oyida ushbu maktabda ingliz tilini mustahkam o'rganish, shuningdek, Angliyaning London Oksford va Kembrijd shaharlariga sayohat qilishadi. Yozgi til maktabida o'quvchilar chuqurlashtirilgan ingliz tili darslari, turli sport va boshqa qiziqarli to'garaklar yordamida o'z bilim va salohiyatlarini boyitib qaytishlari ko'zda tutilgan.

NURBEK

WHERE THERE IS A WILL, THERE IS A WAY (Istak bo'lsa, chora topilar)

It was a hot summer day. A crow was very thirsty. He flew here and there in search of water. He could not find water. He sat on a branch of a tree. There was a pitcher under the tree. There was some water in the pitcher. He was very happy to see the pitcher. He tried to drink water but the level of water was low. His beak could not reach the water in the pitcher. He thought a plan. He dropped some pebbles in the pitcher one by one. The level of water rose up. The crow drank the water and flew away.

New words: crow – qarg'a, thirsty – chanqagan, pitcher – ko'za, beak – tumshuq, pebble – tosh.



Painter: SHARHOVA

COMPLETE WITH PHRASES

Fill in the correct phrase under each drawing.

- A tin of
- A bottle of
- A bar of
- A loaf of
- A joint of
- A tube of
- Half a pound of
- A dozen
- A jar of
- A box of



... toothpaste



... jam




... soup



... bread



... lemonade



... eggs



... meat



... matches



... soap



... butter

Prepared by Dinora SHAKIROVA

LESSON 91

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

GROUP THE WORDS (So'zlarni guruhlang)

Write one name for each of the following groups. Before starting, look at the example.

1. Bee, ant, fly, beetle **I N S E C T S**
2. Motorbike, car, tram, lorry **C**
3. Shirt, tie, blouse, dress **O**
4. Cat, horse, lion, sheep **I**
5. Milk, water, juice, tea **Q**
6. Violin, cello, trumpet, guitar **T E**
7. Butcher, baker, salesman, tailor **C O**
8. Table, sofa, bookcase, chair **U**

Dono AHMEDOVA

TONGUE TWISTERS (Tez aytishlar)

New cheese, blue cheese, chew cheese please.

For fine fresh fish, phone Phil.

Does this shop stock cheap checkers?

Fran feeds fish fresh fish food.

RIDDLES (Topishmoqlar)

I am round and have seeds. Also I'm red and green.

You need me when it is sunny outside and wear me on your face then I protect your eyes. What am I?



I am cold, I have a stick. I'm usually made of frozen fruit juice.

Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school №54 in O'rtachirchiq district, Tashkent region



Faxriddin HAYIT

TA'TIL ZAVQI

Mevalarga g'arq bog'lar,
Baland tog'lar, so'qmoqlar.
Zo'r sayohat, zo'r safar,
Ulg'ayamiz muzaffar.

Bag'in ochar oromgoh,
Tanishamiz do'st-o'rtoq.
Baliq bo'lib suzamid,
Vaqtini shod o'tkazamid.

Qanday yaxshi, qanday soz,
Ta'til zavqi – qaynoq yoz!

QO'RIQCHI

Bobomning polizida
Qurilgan katta chayla.
O'tirasiz chaylada
O'zingizni avaylab.

Bu ham mayli, tunov kun
Yotib qoldik bir kecha.
Poliz qolib o'zimni
Qo'riqladim tonggacha.

Yashnab ketsin bobomning
Polizi-yu dalasi.
Jang boshladi kun botar
Chivinlarning galasi.

Qashlayverib badanni
Tonggacha halak bo'ldik.
Biz-ku omon, dushmanning
Qanchasi halok bo'ldi...

NIMA SHIRIN?

Nima shirin? Barchasi totli,
Bol shirin. biroq...
Yana nima bor, Tinglang meni,
shirin? Yaqin do'st,
Murabbo-yu Eng totlisi –
muzqaymoq, Shirin so'z!

SHOKOLADLI TUSH

Tun parda yoyib
Yulduz osganda,
Sho'x Mirvohidni,
Uyqu bosganda.
Yotqizdi asta
Yumshoq to'shakka.
Bolakay mudrab
Ketdi pinakka.
Keyin oyisi
Dedi erkalab:
– Shirin tushlar ko'r,
Shod tur ertalab!
Behol Mirvohid
Ko'z ochdi nogoh.
Tamshab labini,
So'z ochdi nogoh:
– Oyi, shokolad
Bermasangiz, xo'sh-sh,
Qanday qilib men
Ko'ray shirin tush?!

BU YURT QAYDA BOR...

Yurtimda bayramning tafti o'zgacha,
Bolalar ko'zida hayrat o'zgacha,
Nurli kelajakka yetaklar bizni,
Bu yurt qayda bordir, qaylarda bordir?!

Keksalari saxiy, dono, mehribon,
Madadkor bizlarga go'yoki sarbon,
Yurtim, ko'z tegmasin, aytay baralla,
Bunday samimiy yurt qaylarda bordir?!

Yoshlari ilmi, sportda ilg'or,
Yashash bu jannatda baxt va iftixor,
Tuproq'in oltinga alishmayman hech,
Bunday taftli zamin qaylarda bordir?!

Jahonga qo'li cho'zsa, yetadi qo'li,
Oydin, charog'ondir Istiqlol yo'li,
Kelajagi buyuk, iqboli porloq,
Bunday mustaqil yurt qaylarda bordir?!

Meni ulg'aytirgan O'zbekistonim,
O'xshashi topilmas bog'-u bo'stonim,
Vatanim bayrog'i hilpirayversin,
Bunday obod Vatan qaylarda bordir?!

Shahzodaxon G'ULOMJONOVA,
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi
14-umumta'lim maktabi o'quvchisi

SEN-LA BAXTIYORMAN, ONA DIYORIM!

Mohichehra Shomurodova Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumanidagi 21-umumta'lim maktabi
o'quvchisi.

U maktabda tashkil etilgan «Yosh qalamkash» to'gara-gining faol a'zosi. Bo'sh vaqtlarida she'rlar mashq qiladi. Ustozi Muqaddas Haydarovadan ijod olamining sir-asrorlarini o'rganyapti. Sevimli shoirlari Zulfiya hamda Muhammad Yusuf she'rlarini zavq bilan o'qiydi. Uning ijod namunalari tuman gazetalarida chop etiladi. Shuningdek, Mohichehra jamoat ishlarida ham faol. U yaqinda bo'lib o'tgan «Ona Vatanim – O'zbekistonim!» nomli tanlovning tuman bosqichida faxrli 1-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, Mohichehra maktabda «Kamalak» bolalar tashkilotining «Huquqiy savodxonlik» yo'nalishi sardori ham. Yaqinda tengdoshingiz «Eng yaxshi yil sardori» tanlovining tuman bosqichida ham faxrli 3-o'rinni egalladi.

Qashqadaryolik jamoatchi va ijodkor tengdoshingiz Mohichehraga o'qishida omadlar tilab, uning she'rini e'tiboringizga havola etamiz.

NODIRA

G'UZORIM

Insonlarin ko'ngli paxtadek oppoq,
Tengsiz chamanzordir go'zal hamma yoq.
Kapalaklar qo'ngan nafis gulzorim,
Bardavom yashnagin, go'zal G'uzorim!

Mehnat qilar halol bobodehqoning,
Kelsa quruq ketmas do'st-u mehmoning.
Qo'li ochiq, mehri gul chamanzorim,
Bardavom yashnagin, go'zal G'uzorim!

Mo'minobod, Batoshobod mahallang,
Har uydan taralar beg'ubor allang.
Doim shodon, gavjum, ko'cha, bozorim,
Bardavom yashnagin, go'zal G'uzorim!

Odamlaring oqil, chaqqon, tadbirkor,
Yoshlaring har ishda mohir bunyodkor.
Sen-la baxtiyorman, ona diyorum,
Bardavom yashnagin, go'zal G'uzorim!



KITOBXONGA BILIM YOR BO'LSIN!

Bolalarni hayratlantirib she'r yozish uchun
bu beg'ubor olamga ko'ngling yaqin bo'lishi
kerak. Qalbingda bolalikning bahori barq
ursagina, ular seni e'tirof etishadi.



Taniqli jurnalist Ochil Tohirning «Maqtanchoq mushuk» nomli she'riy to'plamini o'qib, ko'nglimdan turfa xil o'ylar kechdi. «O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etilgan kitobdan joy olgan she'rlarning aksariyatida bolalarga xos rangin satrlar borligi quvonchlidir. Keling, so'zlarimiz quruq bo'lib qolmasligi uchun uning

«Olma» nomli she'riga murojaat qilaylik.

«Olma» atalsam ham men,
Olmam qolmas shoximda.
Nega shundayin deya,
O'ylayman men gohida.

O'zi «olma» deb turib,
Mevamni olib yeydi.
Odamlar nega yana,
Nomimni olma deydi?!



O'quvchini fikr-mulohaza yuritishga undovchi olmaning arzini tinglab, uni yeyishni ham, shoxida qoldirishni ham bilmay qolamiz.

Haqiqiy she'r ko'ngildan his etib yozgan chog'ingdagina o'quvchiga manzur bo'ladi. Bugun Ochil Tohir bolalar dunyosiga sayr etib, o'zining satrlari bilan kitobxon qalbidan joy olishga bel bog'ladi. Uning «Maqtanchoq mushuk» nomli she'rini birga o'qiyamiz.

Moshvoy – maqtanchoq mushuk,
Hovlidan beri kelmas.
Doim osmonda tumshuq,
Boshqalarni mensimas.

Tovuqlar-u qushlarning,
Yurar tinchini buzib.
– Durustmas bu ishlaring, –
Der Sigir qahri qo'zib.



Shartta bo'lib so'zini,
Aytar ism-otini.
Tanishtirar o'zini,
Yo'lbars atab zotini.

– Kim bo'libdi u o'zi,
Irillasa irillar.
Itning odatiy so'zi, –
Deya Moshvoy karillar.

Mana akang qarag'ay,
Kabi yo'q der dovyurak.
Orqa-oldga qaramay,
Itlar bo'lar tumtaroq.

Maqtanadi har safar,
Boplayman deb ko'ppakni.
Ko'rinsami Olapar,
Rostlab qolar juftakni.

Maqtanchoqlik yomon odatligini o'quvchiga maqtanchoq mushuk orqali jonlantirgan shoir bobongizning ijodiga omad tilaymiz.

SPORT to'garaklarida

Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 47-umumta'lim maktabida boks to'garagi ochilganiga ikki yil bo'ldi. Ayni kunda ta'lim maskanining 17 nafardan ziyod o'quvchilari jalb etilgan mazkur to'garakda murabbiy Anvarjon Tohirov boks mashg'ulotlarini olib bormoqda.

Sportchilarning o'tgan davr mobaynida qo'lga kiritgan yutuqlari salmoqli bo'ldi. Jumladan, joriy yilning may oyida «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan turnirda to'garakning o'n ikki nafar a'zosi ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, 5-sinf o'quvchisi Javlonbek Nuriddinov 38 kg vaznda, 8-sinf-dan Temur Maxpiraliyev 40 kg ham-

Ohangaron pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiyot kasb-hunar kollejida boks to'garagi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning a'zolari shu hududda joylashgan umumta'lim maktablari o'quvchilaridir.

Yurtimizda yosh bokschilar qatnashgan musobaqa borki, ularning ishtirokisiz o'tmaydi. O'tgan yili Angren shahrida bo'lib o'tgan viloyat chempionatida 2-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Javohir Xudoyberdiyev va Quvondiq Xoldorov 2001–2002-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida 2-o'rinni egallashdi. Zangiutada o'tkazilgan musobaqada 2002–2003-yilgi o'smirlar o'rtasida 49-umumta'lim maktabi o'quvchisi Hafizulloh G'ovsiddinov 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Ayniqsa, umidli bokschilardan Islom Boymurodov joriy yilning bahorida Zangiota tumanida 2000–2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi viloyat birinчилиgida 70 kg vaznda 1-o'rinni egalladi.

Murabbiy Aziz Abdujabborov yozgi ta'til davrida mashg'ulot kunlarini yanada ko'paytirgan. Demak, navbatdagi musobaqalarda g'oliblar safi kengayishi tayin.

Nozima JAVHAROVA


Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Mirzakalon Ismoiliy nomli mahallada tadbir bo'lib o'tdi.

CHEMPIONNI QUTLASHDI

Unda Koreya davlatida o'tkazilgan xalqaro turnirda o'zbek jang san'ati bo'yicha 1-o'rinni egallab, ona yurtiga yorug' yuz bilan qaytgan tumandagi 71-umumta'lim maktabi o'quvchisi, 11 yoshli Tamirlang Jabbarovni qo'ni-qo'shni, mahalladoshlari qizg'in tabriklashdi.

Shuningdek, tadbirda bolalar o'rtasida shaxmat-shashka musobaqalari, qiziqarli viktorina savollari o'tkazildi. Tumandagi 142-IDUMning 6-«V» sinf o'quvchisi Nurmuhammad Abdurahmonov o'zi yozgan ingliz tilidagi she'rini o'qib berganida, ancha paytgacha olqishlar tinmadi.

O'quvchilar ijro etgan kuy-qo'shiq, raqslar anjumanga o'zgacha shukuh bag'ishladi.



BONU



Shukrulla G'ULOM


da 9-sinf o'quvchisi Shohruxbek Mirsodatov 54 kg vazn toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan iborat jajji sportchilar ham akalaridan sira qolishmadi. Faroxiddin Umaraliyev 26 kg, Asilbek Boqijonov esa 24 kg vaznda tengdoshlaridan ustun kelib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Mashg'ulot jarayonida menga saboq bergan ustozlarim Mixail Zolotoryov va Qodir To'rayevning uslublaridan foydalanaman, – deydi Anvarjon aka.

To'garak tarbiyalanuvchilaridan biri Asadbek Mo'yidinov hozirda Farg'ona olimpiya zaxiralari kollejida o'qishni davom ettirib, yaqinda Boku shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha xalqaro musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yoshlarni turli xildagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatni amalga oshirish borasidagi bilim-ko'nikmalarini oshirish, ularni ekstremal vaziyatlarda jismoniy va ruhiy tayyorgarligini, chidamliligini, qiyinchiliklarni matonat bilan yengish kabi tuyg'ularini shakllantirish maqsadida bugungi kunda respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablari, shuningdek, kasb-hunar kolleji va akademik litseylarda «Yosh qutqaruvchi» ko'ngillilar klublari tashkil etilgan bo'lib, ushbu klublar o'rtasida har yili muntazam ravishda musobaqalar o'tkazilib kelinmoqda.

DO'STLIK VA HAMJIHATLIK BAHSI



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar, Xalq ta'limi, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash hamda Madaniyat va sport ishlari vazirliklari, «Kamolot» YOIH hamda YUNISEF bolalar jamg'armasi hamkorligida o'tkazilayotgan mazkur musobaqaning bu yilgi respublika bosqichi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi «Yosh alangachi» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida tashkil etildi.

Umumta'lim maktablari o'rtasida o'tkazilgan mazkur musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan jami 14 ta jamoa, 112 nafar yosh qutqaruvchilar ishtirok etishdi.

Musobaqaning umumiy natijalari bo'yicha hay'at Kengashi eng yaxshi jamoalarni aniqlashdi. Unga ko'ra, 1-o'rinni Andijon viloyatining «Boburiylar» jamoasi, 2-o'rinni Qashqadaryo viloyatining «Madadkor» jamoasi qo'lga kiritdi.

Masrur SANAYEV

YOSH POLVONLAR SARALANMOQDA

Farg'ona viloyatida «Mahallamiz pahlavonlari» sport musobaqasining saralash bosqichlari o'tkazildi.

O'zbekiston tumanining Konizar qishloq fuqarolar yig'inida bo'lib o'tgan turnirda 6 ta mahalla fuqarolar yig'inidan 100 dan ortiq yoshlar turli vazn toifasida o'zaro bellashishdi.

Yakunda umumjamoa hisobida «Dashcho'lpon» mahallasining sportchi yoshlari 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2- va 3-o'rinlarga «Konizar» hamda «Qo'shqo'noq» mahallasi yosh polvonlari sazovor bo'ldi.

– Ushbu musobaqa iqtidorli polvonlarni kashf etishda muhim omil bo'lmoqda, – deydi «Mahalla» xayriya jamoat fondi tuman bo'limi raisi Baxtiyor Yunusov. – Yoshlar o'rtasida halollik, mardlik, bag'rikenglik, iroda va matonatni shakllantirishga xizmat qilayotgan mazkur musobaqa uyushqoqlik bilan yuqori saviyada tashkil etdi.

Shavkat KAZAKBAYEV

KITOB TAQDIMOTI

Kuni kecha Yangiyo'l qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji-da ushbu ta'lim maskani o'qituvchisi, shoir Elbek Hayit, sobiq o'quvchilar - Said Kamol, Abdulaziz No'monov, Abdulaziz Yo'ldoshevning «Tafakkur qanoti» nashriyotida chop etilgan «Abadiyat hiloli» nomli she'riy to'plamining taqdimoti bo'lib o'tdi.



Y o s h shoir va yozuvchilar - Ulug'bek Mustafoqulov, Erkin Akromov, Muhayyo To'laganova, faxriy pedagoglar, o'quvchilar kitob haqida iliq fikrlar bildirishdi. Kecha yakunida shoirlar o'quvchilarning barcha savollariga atroflicha javob berishdi.

Muzaffar AHMEDOV

MAKTABGA TA'ZIM

Maktab menga o'rgatdi, Hayot haqida. Bilimimni o'stirdi, Axloq haqida. Menga berdi ta'lim, Olam haqida. Undan bor qarzim, Maktabga ta'zim.

Sevinch TEMIROVA,
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 21-umumta'lim maktabi o'quvchisi

RANGLARNING SEHRLI OLAMI



Bugun sizlarga iqtidorli, yosh rassom Diyorbek Qurbonov haqida hikoya qilmoqchimiz. U Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 3-«A» sinfini a'lo baholar bilan tugatdi.

Rasm chizishga bo'lgan havas unga onasidan o'tgan, desak adashmaymiz. U bolalar bog'chasiga qatnab yurgan chog'laridayoq onasining chizgan rasmlarini ko'rib, «Menga ham rangli qalamlar olib bering», degan ekan. Diyorbekning ilk ustozlari ham onasi Nargiza Yusupova bo'lib, farzandini san'atning rangin olami bilan yaqindan tanishtirgan.

Maktabga borgach, u tasviriy san'at faniga alohida mehr qo'ydi. Shogirdidagi iste'dodni ilg'agan ustozlari uni

«Yosh musavvirlar» to'garagiga jalb etdi.

– Diyorbek mening eng iqtidorli shogirdlarimdan biri, – deydi Dilmurod Choriyev. – U tasviriy san'atning grafika, natyurmort, tasavvur etib chizish janrlarida yaxshi ijod qilmoqda.

Yosh rassomimiz kitob mutolaa qilishga ham juda qiziqadi. O'qigan qator ertaklari-yu ko'rgan multfilm qahramonlari aks etgan rasmlari ancha ishonarli chiqqan.


Shuningdek, Diyorbek sport bilan shug'ullanishga ham alohida vaqt ajratadi. Ayniqsa, futbol, gimnastika, suzish kabi sport turlari uning jon-u dili. Shuningdek, iqtidorli tengdoshingiz oilada akasi Ilyos, opasi Anora bilan birga ingliz va rus tillarini puxta o'rganmoqda.

– Diyorbek, kelgusida kim bo'lmoqchisiz? – degan savolimizga hech ikkilanmay, «Katta bo'lsam arxitektor bo'laman», deya dadil javob qaytardi. Ahdi qat'iy fikrlari teran bu iqtidor egasiga kelajakda Vatanimiz ravnagiga hissa qo'shadigan munosib farzand bo'lishini astoydil istadi.



Dilorom MUHAMMADJON qizi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR! «POYTAHTLAR» KROSSVORDI



Quyidagi davlatlar poytaxtlarini shaklga yozish bilan krossvordni hal eting.

Diagonal bo'yicha: 1. Qoraqalpog'iston. 2. Tailand. 3. Lixtenshteyn. 4. Vyetnam. 5. Tatariston. 6. Nikaragua. 7. Afg'oniston. 8. Irlandiya. 9. Ispaniya. 10. Marokash. 11. Senegal. 12. Hindiston.

Eniga: 13. Gvineya-Bisau. 14. Xitoy. 15. Filippin.

Husan ORIPOV tuzdi

8

Ushbu sonda Yoqubbek HALIMBEKOV chizgan rasmlardan foydalanildi

13-iyun 2016



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi.
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSINOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 47026
Buyurtma - S 6205

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08

Bu voqea qadim zamonda bo'lgan ekan. O'shanda sho'rva, xonim, palov, sumalak kabi taomlar bir-birlari bilan bahslashib qolishibdi.

Sho'rva maqtanib:

– Menga eng vitaminlarga boy masalliqlar – piyoz, go'sht, sabzi, kartoshka solinadi. Shuning uchun odamlar meni simirib ichishadi, – debdi.

U so'zini tugatar-tugatmas xonim tilga kiribdi:

– Meni tayyorlash ko'p vaqt talab qilsa-da, odamlar «xonim» deb suyushadi.

Shundan so'ng, palov vazminlik bilan so'z boshlabdi:

– Oralaringizda o'zim eng zo'r taoman. Meni yosh-u qari birday sevib tanovul qiladi. Tarkibimdagi mahsulotlar vitaminlarga juda boy. Shuning uchun odamlar meni «palovxonto'ra» deb erkashadi.

So'ngra sumalak ohista gap boshlabdi:

– Meni sumalak – o'ttiz malak, deyi-

shadi. Hammaga birday yoqaman.

Ular tortisha-tortisha, eng sevimli taom nima ekanligini insonlardan so'raylik, degan xulosaga kelishibdi.



Ular yo'lda ketayotgan dehqonni to'xtatishib, undan bu haqda so'rashibdi. Dehqon bobo o'ylanib turib: «Eng shirin taom mehnatdan so'ng tanovul qilingan taomdir», deb javob beribdi. Bu so'zni eshitib, taomlar xursand bo'lishibdi va boshqa bu haqda bahslashmaydigan bo'lishibdi.

Mohira SAYFULLAYEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 26-umumta'lim maktabi o'quvchisi